

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.03.04
RAQAMLI ILMIY KENGASHDA**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

BEKCHANOVA VALIDA BAXRAM QIZI

**ASOSLI FUTEROVKANI QAYTA ISHLASH ASOSIDA PECH
FUTEROVKASINING XIZMAT MUDDATINI OSHIRISH
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

05.02.01 – Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi. Kamyob, nodir va radioaktiv elementlar texnologiyasi (quymachilik va metallarga ishlov berish yo‘nalishi)

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical sciences

Bekchanova Valida Bahrom qizi

Asosli futerovkani qayta ishlash asosida pech futerovkasining hizmat muddatini oshirish.....3

Бекчанова Валида Бахром қизи

Разработка технологии увеличения срока службы футеровки печи на основе основной обработки футеровки.....19

Bekchanova Valida Bakhram qizi

Development of technology for increasing the service life of the furnace lining based on the basic lining treatment.....28

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....34

RAQAMLI ILMIY KENGASHDA
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

BEKCHANOVA VALIDA BAXRAM QIZI

**ASOSLI FUTEROVKANI QAYTA ISHLASH ASOSIDA PECH
FUTEROVKASINING HIZMAT MUDDATINI OSHIRISH
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

05.02.01 – Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi. Kamyob, nodir va radioaktiv elementlar texnologiyasi (quymachilik va metallarga ishlov berish yo‘nalishi)

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/T2850 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web sahifasida (www.tdtu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Turaxodjayev Nodir Djaxongirovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdullayev Fatxulla Sagdullayevich
texnika fanlari doktori, professor
Berdiyarov Baxriddin Tilovqabulovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon mashinasozlik instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.03.04 raqamli Ilmiy kengashining 2023 yil «9» dekabr soat 1100 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi 2 – uy. Tel./faks: (99871) 227 – 10 – 32, e – mail: tadqiqotchi@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (354 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi 2 – uy. Tel./faks: (99871) 227 – 10 – 32.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «25» noyabr kuni tarqatilgan.
(2023 yil «25» noyabrdagi № 169 – raqamli reestr bayonnomasi).

K.A.Karimov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

Sh.B.Tashbulatov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

N.S.Dunyashin

Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy ilmiy seminar raisi
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda ishlab chiqarish korxonalarida qora metall va uning qotishmalarini suyuqlantirishda foydalanib kelinayotgan elektr pechlari futerovkasining emirilishi natijasida hosil bo'ladigan elementlarning singishi natijasidagi strukturadagi salbiy o'zgarishlarni bartaraf etish texnologiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yo'nalishda dunyodagi sohaning yetakchi davlatlari, jumladan AQSH, Germaniya, Xitoy, Slovakiya, Janubiy Afrika, Koreya, Rossiya kabi davlarining ilmiy-tadqiqot muassasalarida ilmiy tadqiqotlar futerovkaning issiqbardoshligini, pechga yuklanayotgan shixta zarbiga chidamliligi va pech haroratining o'zgaruvchanligiga bardoshligini oshirish yo'nalishida keng miqyosida ilmiy – tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

MDX davlatlarida Rossiya, Ukraina va Qozogistonda elektr pechlarini futerovkasini eyilishini kamaytirish orqali pech futerovkasini ishlash muddatini oshirish bo'yicha bir qator yo'nalishlarda ilmiy taqiqotlar qilinmoqda. Shu bilan birga elektr yoy pechlarida qora metall va uning qotishmalarini suyuqlantirish jarayonida pech futerovkasini yemirilishini kamaytirib, ish muddatini oshirish orqali resurs tejankorlikni ta'minlaydigan samarali usul asosida pech futerovkasini yemirilishbardoshliligini oshirish texnologiyasini yaratishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatimizda, metallurgiya, ishlab chiqarish kombinatlari va quymakorlik sohalarida qo'llanilib kelinayotgan elektr pechlarining futerovkasida foydalanib kelinayotgan olovbardosh materiallarni qayta qo'llash bo'yicha ilmiy – tadqiqot ishlari olib borilgan hamda bir qator natijalarga erishilmoqda. Bu borada elektr pechlarida foydalanilgan olovbardosh materiallarni hamda qotishma tarkibidan ajratib olingan shlak materiallaridan foydalanib, pech futerovkasini yemirilgan joylarini qayta tiklash asosida futerovkani ishlash muddatini oshirish, pech futerovkasini shibbalash rejimini va qayta tiklash maqsadida foydalaniladigan shlak tarkibini normallashtirish texnologiyasini takomillashtirish hamda amaliyotga joriy etishni talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 iyundagi "Kon – metallurgiya sanoati va unga bog'liq sohalarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida"¹ gi PQ – 5159 – son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ – huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahonning etakchi olimlari, jumladan Kaliforniya olimlari J.D. Steenkamp, G.M. Denton and D.A. Haymanlar tomonidan "Elektr pechlari uchun izolyatsiya qiluvchi yoki o'tkazuvchi qoplamalarning dizaynlari" bo'yicha ilmiy ish olib borishgan va pech futerovkasini ishlash davrida izolyatsiya qiluvchi o'tga chidamli material va suyuq shlak materiallarini futerovkani

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 iyundagi "Kon – metallurgiya sanoati va unga bog'liq sohalarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida" gi PQ – 5159 – son qarorlari // LexUZ, 2021 yil 25 iyun

qayta tiklash texnologiyasi orqali pech futerovkasini yemirilishini kamaytirgan. Oʻtga chidamli material va suyuq shlak materiallari pechni ishlash muddatini uzaytirishga yordam bergan, Slovakia olimlari Borovský T., Kijac J., Domovec M. Department of Ferrous metallurgy and Foundry, Faculty of Metallurgy, Technical University of Košice, Železiarne Podbrezová Steelworks inc., Podbrezová, Slovakia tomonidan “Shlak va metallning elektr jihozlari resursiga taʼsirini tahlil qilish va elektr yoy pechining olovbardosh futerovkasi” boʻyicha ilmiy – tadqiqot ishini olib borishgan va shlak tarkibidagi MgO va CaO miqdorini orttirib, shlakni koʻpiklashishiga erishib, pech futerovkasini yemirilishga bardoshlilik yaxshilangan, Janubiy Afrika olimlari Hugo Joubert, Danie Benade, Wayne Burmeister and Louis Meyer Pyromet (Pty) Ltd, PO Box 61582, Marshalltown, 2107, Gauteng, South Africa Assmang Chrome, Machadodorp Works PO Box 152, Machadodorp, 1170, Mpumalanga, South Africa e – mail: hugoj@pyromet.co.za; Louism@assmangchrome.co.za tomonidan “Elektr yoy pechlari uchun futerovkani boshqarish tizimi” boʻyicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan va pech futerovkasini shibbalash hamda ishlash jarayonini kuzatishda dasturiy taʼminotdan foydalangan. Natijada pech futerovkasini yemirilish jarayonini ekran orqali kuzatib, futerovkani ish muddatini aniq baholay olgan. Nigeria olimlari Aduloju Sunday Christopher*, Ebhota Williams Saturday, Bolarinwa Gabriel Oladeji, Owolabi Oluwasegun Biodun National Engineering Design Development Institute, PMB 5082, Newi, Nigeria. *e – mail of the corresponding author: chrisaduloju@yahoo.com tomonidan “Elektr yoy pechida poʻlatni qayta ishlash jarayonini modellashtirib, ularni optimal ishlash va chiqindilarni kamaytirish” boʻyicha izlanishlar olib borishgan va suyuq poʻlat ishlab chiqarish uchun elektr yoy pechida talab qiladigan shixta materiallari va energiya boʻyicha tadqiqotlar oʻtkazilib, evristik usuldan foydalanishgan. Natijada poʻlatni qayta ishlash jarayonini modellashtirish amalga oshirilib, material balansi va energiya balansi shixta materiallarning 13,38% dan 7,38% ga kamaytirishga erishgan.

MDH davlatlari olimlaridan I.V. Marshirov “Elektr yoyli eritish pechi” boʻyicha, Kojuxov Aleksey Aleksandrovich “Elektr yoy pech poʻlat eritish pechlarida poʻlat ishlab chiqarishning energiya – texnologik koʻrsatkichlarini yaxshilash maqsadida poʻlat erituvchi shlaklarni koʻpiklashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish” boʻyicha ilmiy – tadqiqot ishlari olib borishgan va natijada pech futerovkasini ishlash muddati yaxshilangan hamda Oʻzbekiston tadqiqotchilari S.A.Rasulov, U.Raxmonov, Z.Bobodoʻstov va boshqalar qora metall qotishmalari uchun foydalanilayotgan elektr pechlarining futerovkasini yemirilishini kamaytirish boʻyicha bir nechta tadqiqotlar ishlab chiqilgan.

Elektr pechlarini futerovkasini yemirilishini kamaytirishni suyuq qotishmaning temperaturasiga boʻgʻliq holda pech futerovkasini yemirilish darajasini taʼminlash, suyuqlantirib olinayotgan qotishmani kimyoviy tarkibiga bogʻliq holda pech futerovkasini yemirilishi kabi muammolar yetarlicha oʻrganilmagan..

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy – tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat texnika universitetida ilmiy – tadqiqot ishlari rejasiga binoan “Lida Metal Technology” MChJ bilan tuzilgan 2022 yil 23

avgustdagi №12/2022 «Разработка технологии срока службы футеровки печи на основе основной обработки футеровки» (2022 – 2023 уу.) mavzusidagi xo‘jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Elektr yoy pechi futerovkasining xizmat muddatini oshirish texnologiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

Elektr yoy pech futerovkasining yemirilishga bardoshlilikini oshirish texnologiyasini ishlab chiqish;

Pech futerovkasining yemirilishini kamaytirish texnologiyasi ishlab chiqish;

Suyuqlantirib olinayotgan po‘lat qotishmasiga pech futerovkasini ta‘sirini aniqlash;

Suyuq qotishmaga flyus kiritish asosida shlak hosil bo‘lish jarayonini tadqiq qilish.

Tadqiqotning ob‘yekti sifatida DSP – 30 tonnali elektr yoy pechini asosli futerovkasi tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini pech futerovkasida foydalanilayotgan olovbardosh materiallarni xossalari suyuq qotishma temperaturasi hisobiga o‘zgarishi, suyuq shlak tarkibini normallashtirish orqali pech futerovkasini yemirilish jarayonida futerovkaga ta‘sir qiladigan issiqlik almashinuvi va kimyoviy reaksiyalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qotishmalarning tempereturasini aniqlash uchun termopara Positherm, qotishma kimyoviy tarkibini aniqlash uchun “SPEKTROLAB – 10M” uskunasi, qotishma qattiqligini aniqlash uchun TK – 2M markali qattiqlik o‘lchash moslamasi, zarbiy qovushqoqlikni aniqlash uchun MK – 3M uskunasi, qotishma mikrostrukturasini tahlil qilish uchun METAM RV – 23 markali mikroskop, fazalar qattiqligini aniqlash uchun PMT – 3 rusumli mikrotverdomer, Zeiss EVO MA 10 (Carl Zeiss) skanerlash elektron mikroskopidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

elektr yoy pechini futerovkasining yemirilishbardoshlilikini texnologiyasi futerovka tarkibiga olovbardosh elementlar issiqbardoshlik xossasi asosida ishlab chiqilgan;

pech futerovkasining yemirilishini kamaytirish texnologiyasi suyuqlantirib olinayotgan qotishma haroratiga bog‘liqlik darajasining o‘zgarish dinamikasi asosida ishlab chiqilgan;

suyuqlantirib olinayotgan po‘lat qotishmasiga pech futerovkasini ta‘sirini kamaytirish texnologiyasi futerovkaning issiqlik o‘zgarishi qonuniyati asosida ishlab chiqilgan;

suyuq qotishmaga flyus kiritish orqali shlakning hosil bo‘lish intensivligini ta‘minlash texnologiyasi flyus nashkil etuvchilarining kimyoviy xossalsri asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Elektr yoy pechining futerovkasini yemirilishga bardoshlilikini ta‘minlaydigan qo‘shimcha olovbardosh materiallardan foydalanib, uning xizmat muddatini oshirish

texnologiyasi ishlab chiqilgan. Bu ishlab chiqarish sharoitida resurs tejamlilikni ta'minlash imkonini beradi;

Pech futerovkasining yemirilishini suyuqlantirib olinayotgan qotishmaga bog'liqlik darajasi asosida ishlab chiqilgan. Bu qotishma temperaturasini normallashtirish uchun xizmat qiladi;

Suyuqlantirib olinayotgan po'lat qotishmasiga pech futerovkasini ta'sirini o'rganish dinamikasi asosida ishlab chiqilgan. Suyuqlantirib olinayotgan po'lat qotishmasidan sifatli quyma mahsulotlar olishga xizmat qiladi;

Suyuq qotishmaga flyus kiritish asosida shlakni hosil bo'lish intensivligini ta'minlash asosida ishlab chiqilgan. Bu shlak tarkibida me'yorlab, pech futerovkasini ishlash muddatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya tadqiqotida zamonaviy jihozlardan suyuq qotishmani temperaturasini o'lchash uchun termopara, metallografiya va rentgenostruktura tahlillari, elementlar tahlili, makroqattiqlik va mikroqattiqlik qiymatlari, termik ishlov berish, pech futerovkasini eyilishbardoshliligini aniqlash sinovlari natijalarining to'liq o'zaro bog'liqligi, olingan tajriba natijalari mavjud tajriba ma'lumotlariga solishtirilganligi va pech futerovkasini ishlash muddatini oshirib, ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan asoslanadi..

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, elektr pechida qotishmani suyuqlantirish davrida suyuq shlakni ko'piklashtirish orqali pech futerovkasini yemirilishga bardoshliligini oshirishda futerovkaning issiqlik ta'sirida xossalarning o'zgarishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olovbardosh material hamda shlak materiallaridan pech futerovkasini qayta tiklash texnologiyasi joriy etilgani va texnologiyani ishlab chiqarishga joriy qilingani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Asosli futerovkani qayta ishlash asosida pech futerovkasini xizmat muddatini oshirish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

Pech futerovkasini magnezit bilan shibbalash texnologiyasi "Lida Metal Technology" QK MChJ zavodida joriy etilgan tashkilot (2023 yil 30 yanvardagi №1/00 – 0033 – son ma'lumotnomasi). Natijada pech futerovkasining yeyilishbardoshliligini 10 – 15 % ga oshirish imkonini berdi.

Pech futerovkasining yemirilgan joylarini tiklash texnologiyasi "Lida Metal Technology" QK MChJ zavodida joriy etilgan tashkilot (2023 yil 30 yanvardagi №1/00 – 0033 – son ma'lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan texnologiyaning joriy qilinishi pech futerovkasini ishlash muddati 1,2 – 1,3 barobarga oshirish imkonini berdi.

Kam uglerodli po'lat qotishmasini suyuqlantirishda inert gazlari bilan ishlov berish texnologiyasi "Lida Metal Technology" QK MChJ zavodida joriy etilgan (2023 yil 30 yanvardagi №1/00 – 0033 – son ma'lumotnomasi). Natijada qotishma tarkibidagi gazlarning miqdori 8 – 10 % ga kamaytirish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan 5 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy – amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ishlar chop etilgan. O‘zbekiston Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etilishi tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 18 ta maqola, jumladan 4 tasi Respublika, 6 Xalqaro konferensiya va 8 tasi yuqori impakt faktorli jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzusining dolzarbligi va zarurligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalari amaliyotga joriy qilingan, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi va xajmi bo‘yicha malumot berilgan.

Dissertatsiyaning **“Asosli futerovkani qayta ishlash asosida pech futerovkasining xizmat muddatini oshirish texnologiyasini ishlab chiqish”** deb nomlangan birinchi bobida mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlil qilinib, elektr yoy pechida A500 markali kam uglerodli po‘latlarni suyuqlantirib olishda pech futerovkasini yemirilishga bardoshlilikini oshirish bo‘yicha turli xil texnologiyalarni, shuningdek, ishlab chiqilgan texnologiyalarni amalga oshirish uchun turli xildagi tadqiqotlar olib borilgan. A500 markali kam uglerodli po‘latlarni yuqori ekspluatatsion xossalarga ega bo‘lib, ulardan sifatli quyma detallarni olish bir muncha yaxshilangan. Chunki po‘lat turli legirlovchi elementlar bilan ayniqsa xrom bilan legirlanishi natijasida uning quymakorlik xossalari xrom miqdoriga bog‘liq holda yaxshilanadi. Bundan tashqari suyuqlantirib olinayotgan pech futerovkasini yemirilishga bardoshlilikini uning olovbardosh materiallardan tanlab olinib, ya‘ni pech futerovkasini ishlash muddatini oshirishda olovbardosh materiallarni to‘g‘ri tanlash, bu orqali pechning futerovkasini ishlash muddatini oshirishini ta‘minlanish zarur.

Keyingi yillarda po‘lat ishlab chiqarishda elektr yoy pechlaridan keng foydalanib kelingan. Uning ichki qismi futerovkasi olovbardosh materiallar sifatida magnezit yoki magnezit – ko‘mir g‘ishtlari bilan qoplangan. Elektr yoy pechini tamirlash futerovkasini vaqti – vaqti bilan almashtirish qimmatli moliyaviy sarmoyani anglatadi shuningdek, bir necha soatlik ishlamay qolishi va ishlab chiqarish yo‘qotishlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Ma‘lumki, elektr yoy pechini boshqa po‘lat suyuqlantiruvchi pechga nisbatan uning futerovkasi yemirilishga chidamliligi yuqori darajaga ega. Elektr yoy pechining futerovkasini ishlash muddatini uzaytirish haqida o‘ylab ko‘rish kerak, shunda maksimal iqtisodiy samaraga erishiladi. Ushbu

maqsad salbiy omillarni yo‘q qilish bilan birga yuqori haroratga (1500 – 1700°C) doimiy ta’sir qilish, past va yuqori haroratlarda metallning mexanik xossalariga ta’sir qilishi, shlak va metall bilan kimyoviy ta’siri natijasida futerovka shikastlanishiga (asosan FeO, SiO₂ tarkibi), termik zarbalar, eroziya, elektr yoyining to‘g‘ridan – to‘g‘ri ta’siri, gazdan foydalanish kislorod va boshqalar ta’sir ko‘rsatadi. Elektr yoy pechining texnologiyasidagi o‘zgarishlar yemirilish jarayoni sezilarli darajada o‘zgarishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot obyektni tanlash va tadqiqot usullarini ishlab chiqish”** deb nomlangan ikkinchi bobida “Lida metal technology” MCHJ da qurilish materiallari suyuqlantirib olinayotgan A500 markali kam uglerodli po‘lat qotishmalaridan armatura ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Quymakorlik sexida tajriba uchun mo‘ljallangan namunalari suyuqlantirib olish maqsadida DSP – 30 elektr yoy pechidan foydalanildi. Namunalarni quymakorlik qoliplarga A500 markali kam uglerodli po‘lat qotishmasidan quyib olindi. A500 qotishmasini quyib olishda LK2 markali quyma cho‘yan (GOST 4832 – 95), St3 – St5 (GOST 380 – 2005), Ferrochrom FX100 (GOST 4757 – 91), FMn88 – FMn90 markali ferromarganes (GOST 4755 – 91), FS75 markali ferrosilitsiy (GOST 1415 – 93) lardan foydalanildi.

Qotishmalarni suyuqlanish temperaturasi 1570 dan 1580⁰ C gacha tashkil etdi. Qotishmani kovshga quyilgandan so‘ng, shlaklardan tozalandi. So‘ngra po‘lat qotishmasini tarkibidagi gaz va nometall qo‘shimchalarni kamaytirish maqsadida suyuq metallga kovshga quyilgandan so‘ng kovsh ostidan inert gaz ya’ni argon gaz yuborildi. Bundan asosiy maqsad shuki, argon gaz suyuq metall tarkibidagi elementlar bilan reaksiyaga kirishmaydi. Shu sababli suyuq metall tarkibidagi kislorod azot va vodorodni o‘zi bilan tashqi muhitga olib chiqib ketib, po‘latni sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Suyuqlantirilgan qotishmaning quyish vaqtida uning temperaturasi 1650⁰ dan 1665⁰ C gacha temperaturani tashkil etdi.

Qotishmalarni suyuqlantirishda asosan ikkilamchi shixta materiallaridan foydalanildi. Ularni tarkibidagi zararli elementlar fosfor miqdori 0,017 – 0,032 va oltingugurtning miqdori 0,025 – 0,034 % dan oshmasligi ta’minlandi.

Qotishmadan namuna sifatida kokil qolipga quyib olindi va uning qolipda sovush tezligi 70 – 75 grad/min ekanligi aniqlandi. Kokil qolipda quyib olingan namunalarni mexanik xossalarini tekshirish maqsadida legirlangan po‘lat qotishmasidan yasalgan kokil qolip olinib, uning ichki qatlamiga suyuq metall yopishib qolmasligi uchun kokil qolip ma’lum gradusga qizdirildi.

Suyuq metall oldindan tayyorlab qo‘yilgan kokil qolipga quyib olingandan so‘ng, ularni kokil qolipda sovigandan so‘ng ajratib olindi. Bundan asosiy maqsad namuna qotish jarayonida o‘rtacha o‘zining hajmidan kelib chiqib, 2 – 2,5 % gacha kirishish bo‘ldi va qolipdan ajratib olish osonlashdi. Ajratib olingan namunalarni 2.1 – rasmda ko‘rish mumkin.



2.1 – rasm. A500 markali kam uglerodli po‘lat qotishmasini mexanik xossalarini aniqlash maqsadida kokil qolipga quyib olingan namunalar

Namunalar yuza qismini tozalangandan so‘ng ularni kimyoviy tarkibi SEM Zeiss EVO MA 10 skanerlovchi elektron mikroskop, “SPEKTROLAB – 10M” uskunasi, qotishma qattiqligini aniqlash uchun TK – 2M markali qattqlik o‘lchash moslamasi, qotishma mikrostrukturasi tahlil qilish uchun METAM PV – 23 markali mikroskoplardan foydalanildi. Namunalarni qo‘yib olishdan avval ishlab chiqarish korxonasiga A500 markali kam uglerodli po‘lat qotishmasini quyib olish uchun kimyoviy tarkib berildi va namuna uchun berilgan kimyoviy tarkibni 2.1 – jadvalda ko‘rish mumkin.

2.1 – jadval

Ishlab chiqarish korxonasida tavsiya etilgan A500 markali kam uglerodli po‘lat qotishmasining kimyoviy tarkibi

Marka	C	Si	Mn	Cr	Ti	P	S
A500	0,25 – 0,30	0,90 – 0,95	1,60 – 1,90	0,7 – 0,9	0,4 – 0,6	0,03 – 0,04	0,03 – 0,04

Namuna sifatida taklif etilgan A500 markali kam uglerodli po‘lat qotishmasini kimyoviy tarkibini tadqiq qilish uchun “Lida Metal Technology” MCHJ korxonasida tadqiq qilindi.

Ushbu bobda A500 markali kam uglerodli po‘lat qotishmalari uchun foydalanilgan ikkilamchi shixta hamda ferroqotishmalar o‘rganildi.

Kam uglerodli po‘latlardan tayyorlangan namunalarning metallografik miqdoriy tahlil, mexanik xossalar tahlili, mikrorentgen spektral fazalar tahlili, elementli tahlil va kimyoviy tahlillardan foydalanildi.

Umumlashtirilgan natijalar asosida qotishmalarning mexanik va ekspluatatsion xossalariga ta’siri aniqlandi

Dissertatsiyaning **“Asosli futerovkani qayta ishlash asosida pech futerovkasining xizmat muddatini oshirish”** deb nomlangan uchinchi bobida yuqori sifatli po‘lat qotishmalaridan armatura mahsulotlarini olish uchun 30 tonnali elektr yoy pechidan foydalanildi. Elektr yoy pechida suyuqlantirishning asosiy muhim ustuvorlaridan biri bu sifatli quymalar olishdir. Ohangaron shahridagi “Lida metal technology” MCHJ korxonasida A500 markali po‘lat qotishmasidan armaturalar olish uchun shixta hisoblab chiqildi. Ishlab chiqilgan shixtani sarhisob qilish hisobiga


armaturalarni ГОСТ 52544 – 2006 STO – ASCHM 7 – 93 nazorati ostida ishlab chiqarish imkoni tug‘ildi. Birinchi navbatda po‘lat qotishmasini suyuqlantirish uchun asosli bo‘lgan elektr yoy pechi foydalanildi. Shu sababli po‘lat qotishmasini suyuqlantirish uchun asosli bo‘lgan elektr yoy pechi tanlab olindi. Buning asosiy sababi po‘lat qotishmasi kislotaviy bo‘lganligi uchun pechning futerovkasini tez yemirilishga olib keldi. Ishlab chiqarish korxonasida A500 markali kam uglerodli po‘latni suyuqlantirishda foydalanilgan. Elektr yoy pechini ishlash jarayonida suyuq metallardan hosil bo‘lgan shlak orqali pech futerovkasini yemirilishga bardoshlilikini oshirishga erishildi. Buning uchun pechga shixta yuklanib suyuqlantirilgandan so‘ng pech darchasini oldin tayyorlab qo‘yilgan FeCr100 A va FeTi35 markali ferroqotishmalar pech darchasi orqali suyuq metallga qo‘shildi. Bunda nafaqat sifatli po‘lat qotishmasini olibgina qolmay balki pech futerovkasida qoplama hosil qilib, olovbardosh materiallarni ishlash muddati oshirildi. Elektr yoy pechini ta‘mirlash futerovkasini vaqti – vaqti bilan almashtirish qimmatli moliyaviy sarmoyani anglatadi shuningdek, bir necha soatlik ishlamay qolishi va ishlab chiqarish yo‘qotishlari bilan bog‘liqdir. Elektr yoy pechining futerovkasini ishlash muddatini uzaytirib, maksimal iqtisodiy samaraga erishildi. Ushbu maqsad salbiy omillarni yo‘q qilish bilan birga yuqori haroratga (1500 – 1700°C) doimiy ta‘sir qilish, past va yuqori haroratlarda metallning mexanik xossalriga ta‘sir qilishi, shlak va metall bilan kimyoviy ta‘siri natijasida futerovka shikastlanishiga (asosan FeO, SiO₂ tarkibi), termik zarbalar, erroziya, elektr yoyining to‘g‘ridan – to‘g‘ri ta‘siri, gazdan foydalanish kislorod va boshqalar ta‘sir ko‘rsatdi. Elektr yoy pechini suyuqlantirishning boshida asosli shlak hosil bo‘ldi. Ushbu shlakni darhol o‘zgartirish uchun unga (dolomit ohak, MgO – briketlar, qayta ishlangan olovbardosh materiallar qo‘shilishi bilan) shlak sifati yaxshilandi.

“Lida Metal Technology” MChJ ishlab chiqarish sharoitida tadqiqotlar olib borish uchun 30 tonnali elektr yoy pechini futerovkasi ishlash muddatini oshirish maqsadida suyuq metalldagi shlakni CaO va MgO bilan to‘yinganida olovbardosh materiallarni yemirilishga bardoshlilikini orttiribgina qolmay nafaqat rafinerlash jarayonini kamaytirib shlakni ko‘piklash parametrlarini yaxshilashga yordam berdi. Natijada pech futerovkasini ishlash muddatini oshirishga erishildi.

“Lida Metal Technology” MChJ ishlab chiqarish sharoitida tadqiqotlar olib borish uchun 30 tonnali elektr yoy pechini futerovkasining ishlash muddatini oshirish maqsadida shixtaning asosiy qismi eritilganda va harorat ko‘tarilganda, quvvatni kamaytirish kerak va pechni himoya qilish uchun yoy qisqartirildi. Bu vaqtda himoya qiladigan ko‘pikli shlakdan foydalanish mumkin. Natijada pech futerovkasiga putur yetkazmaydi.

“Lida Metal Technology” MChJ ishlab chiqarish sharoitida tadqiqotlar olib borish uchun 30 tonnali elektr yoy pechini futerovkasining ishlash muddatini oshirish maqsadida oldin ishlatilgan olovbardosh materiallarni maydalagich yordamida maydalab, suyuq metall pechdan chiqarilgandan so‘ng pech futerovkasining yeyilgan joylariga maxsus moslama yordamida sepildi. Natijada pech futerovkasini ishlash muddati oshishiga erishildi.

Dissertatsiyaning “Asosli futerovkali elektr yoy pechini qayta ishlash asosida pech futerovkasining matematik modelini tuzish” deb nomlangan to‘rtinchi bobida yuqoridagi olingan natijalardan foydalangan holda matematik modellashirish masalasini ko‘rib chiqilgan.



1 – grafik. Olovbardosh material sifatida magnezit kukunidan foydalanib, futerovkaning xizmat muddatini oshirish grafigi

1 – grafikda ko‘ringanidek, olovbardosh materiallar sifatida magnezit g‘ishtidan foydalanildi va uning yemirilgan joylarini ta‘mirlash orqali magnezit kukuni hamda shlakdan foydalanib, xizmat muddati oshirildi. 1 – grafikda aks etganidek, korxonada tomonidan qo‘llanilib kelinayotgan hamda Toshkent davlat texnika universitetining tadqiqotchilari tomonidan taklif etilgan futerovka tarkibi bir necha tajribalar asosida taqqoslandi. Korxonada tomonidan 30 – 100 % gacha qayta ishlangan olovbardosh material futerovkani yemirilgan joyiga suyuq metallni pechdan chiqarib bo‘lgandan so‘ng qizigan holatda yemirilgan yuzasiga sepish orqali futerovkani ish muddatini o‘zgarishi o‘rganildi. Agarda 30% qayta ishlatilgan olovbardosh material foydalanilganda ishlash muddati 100 soatga, 35% da 200 soatga, 40% da 300 soatga, 50% da 380 soatga, 60% da 450 soatga, 70% da 480 soatga, 80% da 520 soatga, 90% da 550 soatga, 100% da esa 580 soatga futerovkaning xizmat muddati oshirildi.

1. Olovbardosh materiallar sifatida magnezit g‘ishtidan foydalanilgan holda uning yemirilgan joylarini ta‘mirlash orqali magnezit kukuni hamda shlakdan foydalanib, xizmat muddati oshirilishi o‘rganildi.

2. Shibba tarkibidagi suyuq shlak miqdoridan foydalangan holda futerovkaning yemirilishi o‘rganildi.

3. Tajriba asosida olingan ma‘lumatlardan foydalanib, Kramer yordamida tajriba o‘tkazmasdan aniqlash keying natijalarni aniqlash mumkin.

4. Sifatli quyma mahsulotini olishda va nometall qo‘shimchalarni kamaytirish maqsadida suyuq metallga inert ya‘ni argon gazi yuborilish koeffisienti hisoblab chiqildi.

5. Olinadigan quyma mahsulot sifatli nometall qo‘shimchalardan holi g‘ovakliklari kamaytirish maqsadida suyuq metallga argon gazi yuborish orqali

quyma mahsulotdagi g'ovaklar va nometall qo'shimchalar yo'qolishini rejimi aniqlandi.

XULOSA

“Asosli futerovkani qayta ishlash asosida pech futerovkasining xizmat muddatini oshirish texnologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi doktorlik dissertatsiya ishi bo'yicha olib borilgan ilmiy – tadqiqotlar natijasida quyidagi asosiy xulosalar taqdim etildi:

1. Elektr pechini futerovkasi ishlash muddatini oshirish uchun suyuq metallardagi shlak tarkibiga Cr_2O_3 , Al_2O_3 , SiO_2 va MgO miqdorini oshirish, FeO ini kamaytirish tavsiya etiladi. Natijada pech futerovkasining yemirilishga bardoshlilik ortishiga olib keladi.

2. Elektr pechida po'lat qotishmasini suyuqlantirib olish jarayonida shlakni ko'piklashtirish orqali pech futerovkasini yemirilishini kamaytirishga erishish mumkin.

3. Suyuqlantirib olinayotgan po'lat qotishmasining temperaturasi pech futerovkasini yemirilishiga ta'sirini o'rganish va u orqali pech futerovkasini ishlash muddatini oshirishga erishish mumkin.

4. “Lida Metal Technology” MChJ ishlab chiqarish sharoitida tadqiqotlar olib borish uchun 30 tonnali elektr yoy pechini futerovkasining ishlash muddatini oshirish maqsadida oldin ishlatilgan olovbardosh material va ishlatilgan olovbardosh materialning og'irligidan kelib chiqib, 10 % shlak (Cr_2O_3 , MgO , Al_2O_3 , SiO_2 , ozroq FeO , CaO) birgalikda maydalagich yordamida maydalab, suyuq metall pechdan chiqarilgandan so'ng pech futerovkasini yeyilgan joylariga maxsus moslama yordamida sepiladi. Natijada pech futerovkasini ishlash muddati oshirishga erishildi.

5. Elektr yoy pechini futerovkasining yemirilishga bardoshlilikini oshirish texnologiyasi futerovka tarkibiga olovbardosh elementlar kiritish hisobiga ishlab chiqildi. Buning natijasida pech futerovkasining xizmat muddati 600 soatdan 800 soatgacha oshirish imkonini berdi.

6. Pech futerovkasining yemirilishini kamaytirish texnologiyasi suyuqlantirib olinayotgan qotishmaning kimyoviy tarkibiga bog'liqlik darajasini kamaytirish asosida ishlab chiqildi. Bu resurs tejankor texnologiyalar ishlab chiqishga imkonini berdi.

7. Suyuqlantirib olinayotgan po'lat qotishmasiga pech futerovkasini ta'sirini dinamikasi asosida ishlab chiqildi. Buning natijasida pech futerovkasini ichki qatlamini 8 – 10 foizga oshirish imkonini berdi.

8. Suyuq qotishmaga flyus kiritish asosida shlakni hosil bo'lish intensivligini ta'minlash asosida ishlab chiqildi. Bu esa sifatli po'lat qotishmasini suyuqlantirib olishga imkon berdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Т.03.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

БЕКЧАНОВА ВАЛИДА БАХРОМ КИЗИ

**Разработка технологии увеличения срока службы футеровки печи на
основе основной обработки футеровки**

**05.02.01 – Материаловедение в машиностроении. Литейное производство.
Термическая обработка металлов давлением. Металлургия черных, цветных и редких
металлов. Технология редких, ценных и радиоактивных элементов**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером В2022.2.PhD/T2850

Диссертация выполнена в Ташкентский государственный технический университет.

Автореферат диссертации написан на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб – сайте Научного совета (www.tstu.uz) и информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Тураходжаев Нодир Джахонгирович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Абдуллаев Фатхулла Сагдуллаевич
доктор технических наук, профессор

Бердияров Бахриддин Тиловкабулович
доктор технических наук, доцент

Ведущая организация:

Андижанский машиностроительный институт

Защита диссертации состоится «9» декабрь 2023 г. в 11⁰⁰ часов на заседании разового Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.03.04 Ташкентского государственного технического университета. (Адрес: 100095, г. Ташкент, ул. Университетская, 2. Тел./факс: (99871) 227 – 10 – 32; e – mail: tadqiqotchi@tdtu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно – ресурсном центре Ташкентского государственного транспортного университета (регистрационный номер 354). (Адрес: 100095, г. Ташкент, ул. Университетская, 2. Тел./факс: (99871) 227 – 10 – 32.

Автореферат диссертации разослан «25» ноября 2023 года.
(протокол реестра № 25 от ноября 2023 года).

К.А.Каримов

Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней
доктор технических наук, профессор

Ш.Б.Ташбулатов

Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней
доктор философии по техническим наукам, (PhD)

Н.С.Дуняшин

Председатель научного семинара, при научном совете
присуждающего научные степени
доктор технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии(PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Одной из важнейших задач в современном мире является разработка ресурсосберегающих технологий за счет увеличения срока службы футеровок электропечей, которые используются для ожижения черного металла и его сплавов, выпускаемых на машиностроительных, инструментальных и производственных предприятиях. Научно-исследовательские работы по увеличению срока службы футеровки печи в мировом масштабе, в том числе: разработка состава футеровки в соответствии с составом разжижаемого сплава; изучить влияние состава жидкого шлака, выделяющегося из сплава при работе печи, на пластичность футеровки печи; снижение коррозии футеровки печи за счет улучшения вспенивания шлака, выделяющегося из жидкого сплава; Важно увеличить срок службы футеровки печи за счет восстановления проржавевших в процессе эксплуатации участков футеровки печи с использованием бывших в употреблении огнеупорных материалов и измельченных шлаковых смесей.

В ряде направлений осуществляются научные разработки по увеличению срока службы футеровки печей за счет уменьшения изгиба футеровки электропечей. В связи с этим США, Словакия, ЮАР, Нигерия, Россия, Украина и другие страны являются лидерами по повышению стойкости футеровки печи.

Из года в год особое внимание уделяется созданию технологии повышения коррозионной стойкости футеровки печи на основе эффективного метода, обеспечивающего ресурсосбережение за счет снижения коррозии футеровки печи и увеличения срока службы в процессе ожижения черного металла и его сплавов в электродуговых печах.

После обретения нашей республикой независимости в нашей стране в областях металлургии, производственных и литейных цехов проведены научно – исследовательские работы по повторному использованию огнеупорных материалов, которые применяются при футеровке электропечей и ряд результатов достигаются.

В связи с этим, используя огнеупоры, применяемые в электропечах, и выделенные из состава сплава шлаковые материалы, требуется увеличить срок службы футеровки печи на основе восстановления поврежденных участков, усовершенствовать и внедрить технологию нормализации шлакового состава, используемый с целью восстановления футеровки печи.

Постановление Президента Республики Узбекистан от 24 июня 2021 года «О дополнительных мерах по развитию горно-металлургической промышленности и смежных отраслей» ПП-5159-номер и другие нормативные правовые акты, касающиеся данной деятельности, определенной степени в реализации задач, определенных в правовых документах.

